

II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 48 429,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (98,0 %)ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 7,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning 25,3 % o'sishi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 49,7 % ga kamayishi kuzatildi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 31,3 % ga o'sishi kuzatildi.


***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining hajmi va oʻsish surʼatlari yanvar-sentabr oylari, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 555,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (yanvar-sentabr oylari)




Ishlab chiqaradigan sanoat

(yanvar-sentabr oylari)



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47 468,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 98,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati

- 2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda:
- 187 809,0 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 15,0 % ga oshgan;
 - 15,5 ming tonna neft qazib olindi hamda 2022-yilning shu davriga nisbatan 3,5 % ga kamayish kuzatildi;
 - 8 452,0 tonna yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarildi, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 82,8 % ga kamayishi kuzatildi;
 - 7 814,0 ming litr 80,0 % dan kam bo'lmagan etil spirti ishlab chiqarildi, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 15,4 % ga kamayishi kuzatildi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	farqi, +/-
Yengil avtomobillar, dona	187 809	163 284,0	24 525
Paxtadan yigirilgan ip, tonna	7 234,0	6 658,8	575,2
Aroq, ming litr	-	420,9	-420,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	29,6	96,8	-67,2
Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi, tonna	26 483,0	25 355,5	1 127,5
O'simlik yog'i (tozalanmagan), tonna	-	2 151,0	-2 151,0

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 76 512,0 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % oshgan), 2 133 dona “Nexia T-250” (88,0 % ga kamaygan), 58 283 dona “Lacetti-Gentra” (0,9 % ga kamaygan), 546 dona “Spark” (95,1 % ga kamaygan), 28 253 dona “Treker” (5,2 martaga oshgan), 22 082 dona “Onix” avtomobillari ishlab chiqarildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 15,0 % ga oshdi.

Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, dona)




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (yanvar-sentabr oylarida)



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 296,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 49,7 % ga kamayishi kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(yanvar-sentabr oylarida)



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kvts	570,0	685,5	-155,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	6,7	-6,3
Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	53,0	339,7	-286,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 125,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	farqi, +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	78,7	52,7	137,4
Oqava suvlarni shlami, mlrd. so'm	13,1	14,0	-0,9
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	-	0,5	-0,5

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 33 740,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi va uning jami sanoatdagi ulushi 69,7 % ni tashkil etdi.




















Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga 78,1 %, Xo'jaobod tumaniga 4,3 %, Andijon shahriga 2,5 %, Shahrixon tumaniga 2,0 % hamda Oltinko'l tumaniga 2,0 % to'g'ri keldi. Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etdi. Yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Oltinko'l (121,5 %), Qo'rg'ontepa tumanlari (112,8 %), Xonobod shahar (110,8 %), Xo'jaobod (109,3 %), Buloqboshi (109,0 %) hamda Asaka tumanlarida (106,7 %) qayd etildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 025,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


















Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.

**Andijon viloyati hududlari bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)


	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	33740,7	69,7	106,1
Andijon viloyati			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	852,8	2,5	92,3
Andijon shahar			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	333,6	1,0	110,8
Xonobod shahar			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	517,0	1,5	102,6
Andijon			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	26 339,9	78,1	106,7
Asaka			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	223,4	0,7	103,2
Baliqchi			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	252,4	0,7	109,0
Buloqboshi			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	144,9	0,4	100,7
Bo'ston			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	468,4	1,4	98,0
Jalaquduq			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	503,2	1,5	100,4
Izboskan			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	181,8	0,5	107,9
Ulug'nor			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	222,4	0,7	100,3
Marhamat			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	667,1	2,0	121,5
Oltinko'l			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	463,3	1,4	92,5
Paxtaobod			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	1443,8	4,3	109,3
Xo'jaobod			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	675,8	2,0	101,6
Shahrixon			
	Mrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	451,0	1,3	112,8
Qo'rg'ontepa			

Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Andijon viloyati				Xonobod shahar		
	Mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da		Mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sishi, % da
	48 429,7	100,0	106,1		2 003,0	4,1	102,8
	Andijon shahar				Asaka		
	6 697,5	13,8	103,4		27 380,8	56,5	107,0
	Andijon				Buloqbohi		
	957,8	2,0	108,2		344,4	0,7	104,8
	Baliqchi				Jalaquduq		
	1 316,6	2,7	103,6		1 034,3	2,1	105,7
	Bo'ston				Ulug'nor		
	345,0	0,7	104,5		362,5	0,7	108,0
	Izboskan				Oltinko'l		
	886,6	1,8	102,3		908,8	1,9	105,5
	Marhamat				Paxtaobod		
	593,3	1,2	105,3		1 732,7	3,6	102,1
	Paxtaobod				Qo'rg'ontepa		
	803,6	1,7	102,2		1 841,9	3,8	103,2
	Shahrixon				Qo'rg'ontepa		
	1 221,0	2,5	104,5				

**Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi,
iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da**




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Andijon (108,2 %), Ulug'nor (108,0 %), Asaka (107,0 %), Jalaquduq (105,7 %) Oltinko'1 (105,5 %), Marhamat (105,3 %) Buloqboshi (104,8 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumani (56,2 %), Andijon shahar (13,8 %), Xonobod shahar (4,1 %), Qo'rg'ontepa (3,8 %), Xo'jaobod (3,6 %) hamda Baliqchi (2,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ulushi esa Buloqboshi (0,7 %), Bo'ston (0,7 %) hamda Ulug'nor (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




















Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi viloyatda o'rtacha 14 459,3 ming so'mni tashkil etdi. Yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 78 174,0 ming so'm, Xonobod shahrida 44 182,3 ming so'm va Xo'jaobod tumanida 14 659,5 ming so'mni tashkil etib, viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10 073,7 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida 75 202,4 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida 12 215,4 ming so'mni, Xonobod shahrida 7 358,4 so'mni, Oltinko'l tumanida 3 506,5 ming so'mni, Ulug'nor tumanida 2 871,9 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	<i>Sanoat mahsulotlari</i>		<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		
	14 459,3		10 073,7		
Andijon viloyati					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	14 164,3	1 803,5		44 182,3	7 358,4
Andijon sh.		Xonobod sh.			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 393,2	1 831,4		78 174,0	75 202,4
Andijon		Asaka			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	6 181,2	1 048,9		2 279,4	1 670,5
Baliqchi		Buloqboshi			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	4 490,1	1 886,0		5 261,5	2 382,8
Bo'ston		Jalaquduq			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 516,1	1 995,6		5 724,8	2 871,9
Izboskan		Ulug'nor			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 226,6	1 209,4		4 777,4	3 506,6
Marhamat		Oltinko'l			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Истеъмол маҳсулотлари</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 903,9	2 250,6		14 659,5	12 215,4
Paxtaobod		Xo'jaobod			
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	3 817,0	2 112,4		8 091,0	1 981,0
Shahrixon		Qo'rg'ontepa			


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

Izboskan va Buloqboshi tumanlarida yirik ishlab chiqaruvchi korxonalarining mavjud emasligi hisobiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 100,0 % kichik biznes hissasiga toʻgʻri keladi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi yuqori ulushi Shahrixon (86,5 %), Andijon (82,2 %) hamda Baliqchi (68,7 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Asaka tumani (1,6 %), Andijon shahri (27,4 %), Xonobod shahri (33,7 %) va Marhamat tumanida (33,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 10 896 dona sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan, shundan 5 544 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 50,9 foizi) faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, Andijon shahriga 1 470 tasi (26,5 %), Andijon tumaniga 619 tasi (11,2 %), Asaka tumaniga 509 tasi (9,2 %), Shahrixon tumaniga 423 tasi (7,6 %), Xo'jaobod tumaniga 409 tasi (7,4 %), Baliqchi tumaniga 251 tasi (4,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 674 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 121 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 18,0 %) Andijon shahrida, 112 tasi (16,6 %) Andijon tumanida, 58 tasi (8,6 %) Asaka tumanida, 49 tasi (7,3 %) Qo'rg'ontepa tumanida hamda 41 tasi (6,0 %) Baliqchi tumanida tashkil etildi.


Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga Andijon shahar (1 470 ta), Andijon (619 ta), Asaka (509 ta), Shahrixon (423 ta), Xo'jaobod (409 ta), Baliqchi (251 ta), Oltinko'l (250 ta) hamda Qo'rg'ontepa (241 ta) tumanlari kiritildi.


Viloyat miqyosidagi eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar

2023-yil 1-oktabr holatiga



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar

2023-yil 1-oktabr holatiga



Qo'rg'ontepa | Xo'jaobod | Shahrixon | Andijon | Jalaquduq | Izboskan | Paxtaobod | Ulug'nor
Oltinko'l | Baliqchi | Asaka | Andijon sh | Marhamat | Buloqboshi | Bo'ston | Xonobod sh

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida esa Jalaquduq (235 ta), Marhamat (229 ta), Izboskan (202 ta), Buloqboshi (197 ta), Paxtaobod (182 ta), Bo'ston (130 ta), Ulug'nor (100 ta) tumanlari hamda Xonobod shahri (97 ta) qayd etildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.